

BRONXOPULMONAL PATOLOGIYALI BEMORLARDA KLINIK-LABORATOR VA IMMUNOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**Qalandarova D.O**

Annotatsiya. Mazkur tezisda bronxopulmonal patologiyali bemorlarda klinik-laborator va immunologik ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yallig'lanish belgilarining og'irligi, qon ko'rsatkichlari, immunitetning gipo- yoki giperraktiv holatlari baholandi. Olingan natijalarga asoslanib, bemorlar holatini erta tashxislash va individual yondashuv asosida davolash zarurligi asoslab berildi.

Bronxopulmonal kasalliklar – surunkali bronxit, pnevmoniya, bronxial astma va boshqa respirator patologiyalar hozirgi kunda keng tarqalmoqda. Bu kasalliklar ko'p hollarda surunkali kechadi, immunitet buzilishlari, qo'shimcha infeksiyalar bilan kechishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu bemorlarda organizmning himoya tizimlarida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi. Ushbu maqolada biz aynan ana shunday o'zgarishlarni klinik-laborator va immunologik jihatdan o'rganishni maqsad qildik.

Bronxopulmonal patologiyali bemorlarda klinik, laborator va immunologik o'zgarishlarni o'rganish, ushbu ko'rsatkichlar asosida diagnostika va davolash strategiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar berish.

Tadqiqotda 2024–2025 yillar davomida statsionar sharoitda davolangan 100 nafar bronxopulmonal patologiyali bemorlar ishtirok etdi. Kontroll guruh sifatida 20 nafar sog'lom shaxslar jalb qilindi. Barcha bemorlar klinik, laborator (qon umumiy tahlili, biokimyoviy tahlillar), immunologik (CD4+, CD8+, IgA, IgM, IgG darajalari) ko'rsatkichlar bilan tekshirildi. Statistika SPSS dasturida t-test, χ^2 va korrelyatsion tahlil usullari orqali qayta ishlangan.

Tadqiqotda aniqlanishicha, bronxopulmonal patologiyali bemorlarda erta bosqichdayoq C-reaktiv oqsil, leykotsitlar, NEU foizi kabi yallig'lanish markerlari sezilarli oshgan. IgA darajasi ko'pchilik bemorlarda kamaygan, bu esa shilliq qavat immunitetining susayganini ko'rsatadi. CD4/CD8 nisbati 0.9 dan past bo'lgan holatlar immun tanqisligi rivojlanganini anglatadi. Klinik jihatdan esa bemorlarda tez-tez qaytalanuvchi yo'tal, nafas qisishi va holsizlik kuzatilgan.

Olingan natijalar bronxopulmonal patologiyalarda nafaqat infeksiyon jarayon, balki immun tizimdagi nomutanosibliklar ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu sababli har bir bemorni kompleks baholash – ya'ni nafaqat klinik simptomlar, balki immunologik ko'rsatkichlar asosida ham tashxislash va individual yondashuv bilan davolash zarur. Immunoregulyatsiya usullarini davolashga kiritish yuqori samaradorlik beradi.

Bronxopulmonal patologiyalarni samarali davolash uchun immunologik monitoring muhim ahamiyatga ega. Klinik belgilar bilan birgalikda immun disbalans darajasini hisobga olgan holda kompleks terapiya bemor holatini sezilarli yaxshilaydi. Tadqiqot natijalari asosida shuni tavsiya etish mumkinki, har bir bunday bemor uchun shaxsiylashtirilgan yondashuv, xususan immunoterapiya komponentlarini qo‘shish, eng maqbul yo‘ldir.

